

O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirining  
2025 yil "23" iyundagi  
180-sonli buyrug'iga  
7-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
AKADEMIK Y.X. TO'RAQULOV NOMIDAGI RESPUBLIKA  
IXTISOSLASHTIRILGAN ENDOKRINOLOGIYA ILMIIY-AMALIIY TIBBIYOT  
MARKAZI**

**«DIABET NEFROPATIYASI» NOZOLOGIYASI BO'YICHA  
MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI**

**Toshkent 2025**

«TASDIQLAYMAN»

akademik Y.X. To'raqulov nomidagi  
respublika ixtisoslashtirilgan  
endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot  
markazi direktori

A.V. Alimov

“ ” “ ” 2025 yil

«DIABET NEFROPATIYASI» NOZOLOGIYASI BO'YICHA  
MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI

TOSHKENT – 2025

DIABET NEFROPATIYASI NOZOLOGIASINING TASHXISOTI VA DAVOLASH BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL.....	10
DIABET NEFROPATIYASI NOZOLOGIASIDA TIBBIY YONDASHUV BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL.....	15
DIABET NEFROPATIYASI NOZOLOGIASINING TIBBIY REABILITASIYASI VA PROFILAKTIKASI BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL.....	27

**«DIABET NEFROPATIIYASI» NOZOLOGIYASI BO‘YICHA  
MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI**

## 1. KIRISH QISMI

### 1.1. MKB-10 bo'yicha kodlar:

MKB-10	MKB-11	Nomlanishi
E10.2	5A10.1Y	Buyrak shikastlanishi bilan kechuvchi insulinga bog'liq qandli diabet
E11.2	5A11.1Y	Buyrak shikastlanishi bilan kechuvchi insulinga bog'liq bo'lmagan qandli diabet
E10.7	5A10.1Z	Ko'plab asoratlar bilan kechuvchi insulinga bog'liq qandli diabet
E11.7	5A11.1Z	Ko'plab asoratlar bilan kechuvchi insulinga bog'liq bo'lmagan qandli diabet
E13.2	5A13.1Y	Buyrak shikastlanishi bilan kechuvchi qandli diabetning boshqa aniqlangan shakllari
E13.7	5A13.1Z	Ko'plab asoratlar bilan kechuvchi qandli diabetning boshqa aniqlangan shakllari
E14.7	5A14.1Z	Ko'plab asoratlar bilan kechuvchi aniqlanmagan qandli diabet

<https://classinform.ru/mkb-10/e00-e07.html>

<https://icd.who.int/en>

### 1.2. Ushbu klinik protokol va standartni ishlab chiqish uchun mas'ul muassasa:

Akademik Y.X.To'raqulov nomidagi O'zR SSV ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

### 1.3. Klinik protokol va standartni ishlab chiqish uchun hissa qo'shganlar:

Endokrinologiya yo'nalishi bo'yicha jarayonni tashkil etgan ishchi guruh a'zolari:

1.	Xalimova Z.Y., t.f.d., professor	Y.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM, ilmiy ishlar bo'yicha director o'rinbosari, endokrinolog
2.	Raximova G.N., t.f.d., professor	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, kafedra mudiri, endokrinolog

### Mualliflar ro'yxati:

1.	Shamansurova Z.M., MD, PhD, DSc, Associate Professor	Central Asian University Medical School, Endokrinolog
2.	Ayxodjaeva M.A., t.f.n	Y.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM, endokrinolog
3.	Kayumova D.T., t.f.n	Y.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM, endokrinolog
4.	Sultanova Sh.T.	Y.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM, endokrinolog
5.	Teshabekova M. K.	Y.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM, endokrinolog
6.	Musaxanova Ch.B.	Y.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM, endokrinolog
7.	Alimova K.B.	Y.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM, endokrinolog
8.	Latipova M.A.	Y.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM, endokrinolog
9.	Asadova N.Sh.	Y.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM, endokrinolog

### 1.4. Taqrizchilar:

1.	Djuraeva A.Sh.	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, endokrinolog
2.	Alieva A.V., t.f.d	Y.X. To'raqulov nomidagi RIEIATM, endokrinolog

**Munozara sanalari:**

07.09.2023y - O‘zR SSV Yo.X.To‘raqulov nomidagi RIEIATM ilmiy kengashida TXKMRM, TMA, ToshPTI dan taklif qilingan endokrinologlar guruhi bilan (muhokama protokolidan olingan raqam) muhokama

**Tashqi ekspertiza (JSSTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi ko‘magida):**

.....

JSST eksperti .....

Klinik bayonnoma oliy ta'lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, O‘zbekiston Endokrinologlar assosiasiyasi a'zolari, sog‘liqni saqlash tashkilotchilari (akademik Y.X. To‘raqulov nomidagi RIEIATM filiallari direktorlari va uning muovnlari, endokrinologik dispanserlar bosh shifokorlari va ularning muovnlari) hududiy endokrinologiya tizimi muassasalari shifokorlari ishtirokida oflayn va onlayn formatda (2023 yil 10 noyabr, 1-son bayonnomasi) ishchi guruhning yakuniy yig‘ilishida norasmiy kelishuvga erishilgan holda muhokama qilindi va tasdiqlash uchun tavsiya etildi.

Ishchi guruh rahbari - t.f.d. prof. Z.Y. Xalimova – O‘zR SSV akademik Y.X. To‘raqulov nomidagi RIEIATM direktori

Klinik protokol akademik Y.X. To‘raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazining ilmiy kengashi tomonidan ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi. 27 dekabr 2024 g., 7-sonli bayonnoma.

Ilmiy Kengash Raisi – t.f.d. S.S. Faxrutdinova – O‘zR SSV akademik Y.X. To‘raqulov nomidagi RIEIATM direktori.

Mazkur klinik protokol va standartlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazir o‘rinbosari Basitxanova E.I, Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi boshlig‘i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko‘magi asosida ishlab chiqilgan.

Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi kengash majlisi bayonnomasidan ko‘chirma (sana, raqam).

## 1.6. Qisqartmalar ro'yxati

<b>AG</b>	Arterial gipertoniya
<b>A/Kr</b>	Albumin/kreatinin nisbati
<b>AU</b>	Albuminuriya
<b>ARB</b>	Angiotenzin II reseptori blokatorlari
<b>GD</b>	Gemodializ
<b>DN</b>	Diabetik nefropatiya
<b>O'BT</b>	O'rinbosar buyrak terapiyasi
<b>AAFI</b>	Angiotenzinga aylantiruvchi ferment ingibitori
<b>MAU</b>	Mikroalbuminuriya
<b>MRT</b>	Magnit-rezonans tomografiya
<b>RAAT</b>	Renin-angiotenzin-aldosteron tizimi
<b>PTG</b>	Paratgormon
<b>PU</b>	Proteinuriya
<b>QD</b>	Qandli diabet
<b>QD1</b>	Qandli diabet 1 turi
<b>QD2</b>	Qandli diabet 2 turi
<b>KFT</b>	Koptokchalar filtratsiyasi tezligi
<b>YuQTK</b>	Yurak qon-tomir kasalliklari
<b>BT</b>	Buyraklar transplantatsiyasi
<b>AET</b>	Albumin ekskresiyasi tezligi
<b>TBE</b>	Terminal buyrak etishmovchiligi
<b>SBK</b>	Surunkali buyrak kasalligi
<b>IDF</b>	International Diabetes Federation (Mejdunarodnaya Federatsiya Diabeta)
<b>EASD</b>	European Association Study of Diabetes (Qandli diabetni o'rganish bo'yicha Evropa Assosiasiyasi)
<b>AACE</b>	American Association of Clinical Endocrinologists (Amerika klinik endokrinologlarining assosiasiyasi)
<b>KDIGO</b>	Kidney Disease Improving Global Outcome (buyrak kasalliklari: natijalarning global yaxilanishi)

## 1.7. Klinik protokol foydalanuvchilari:

1. Shifokor - endokrinologlar
2. Shifokor - kardiologlar;
3. Shifokor - nefrologlar;
4. Umumiy amaliyot shifokorlari;
5. Shifokor - terapevtlar;
6. Sog'liqni saqlash tashkilotchilari;
7. Klinik farmakologlar;
8. Talabalar, klinik ordinatorlar, magistrlar, aspirantlar, oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari;
9. Qandli diabetga chalingan bemorlar, ularning oila a'zolari va ularni parvarish qiluvchilar

**1.8. Bemorlar toifasi:** 1 va 2-tur qandli diabetga chalingan bemorlar, asoratlar bilan birgalikda, surunkali buyrak kasalliklar bilan birgalikda.

## 1.9. Isbotlanganlik darajasi shkalasi

**Tashxislash usullari (tashxislash uchun aralashuvlar) uchun dalillar ishonchlilik darajasini baholash shkalasi (DID)**

<b>DID</b>	<b>To'liq tahlillash</b>
<b>1</b>	Referens usuli yordamida nazoratli tadqiqotlarni tizimli sharhlash yoki meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli sharhlash.

2	Referens usuli yordamida nazoratli alohida tadqiqotlar yoki individual randomizasiyalangan klinik sinovlar va meta-tahlil yordamida randomizasiyalangan klinik sinovlardan tashqari har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli sharhlash.
3	Referens usuli bo'yicha ketma-ket nazoratsiz tadqiqotlar yoki o'rganilayotgan usuldan mustaqil bo'lmagan referens usulidagi tadqiqotlar yoki randomizasiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kogort tadqiqotlari.
4	Qiyosiy bo'lmagan tadqiqotlar, klinik holat tavsifi
5	Harakat mexanizmini asoslash yoki ekspertlar fikri mavjud.

**Profilaktik, davolash va reabilitasiya tadbirlari uchun dalillar ishonchlilik darajasini (DID) baholash uchun shkala**

DID	To'liq tahlillash
1	Meta-tahlil yordamida RKT tizimli sharhlash.
2	Meta-tahlil yordamida, RKT istisno, turli dizayndagi tadqiqotlarni tizimli sharhlash va alohida RKT.
3	Randomizasiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kogort tadqiqotlar
4	Qiyosiy bo'lmagan tadqiqotlar, klinik hodisani tavsifi yoki "hodisa-nazorat" tadqiqotlari seriyasi.
5	Faqat tibbiy aralashuvning ta'sir qilish mexanizmi (klinik namoyon bo'lgunga qadar o'tkazilgan tadqiqotlar) yoki ekspert xulosasi uchun asos mavjud.

**Profilaktik, davolash va reabilitasiya tadbirlari uchun tavsiyalarining ishonchlilik darajasini (TID) baholash uchun shkala**

TID	To'liq tahlillash
A	Kuchli tavsiyalar (barcha ko'rib chiqilayotgan samaradorlik mezonlari muhim, barcha tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega, ularning qiziqtirgan natijalari to'g'risidagi xulosalari mos keladi)
B	Shartli tavsiyalar (ko'rib chiqilayotgan samaradorlik mezonlarining (natijalar) barchasi ham muhim hisoblanmaydi, tadqiqotlarning barchasi yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega emas va/yoki ularning qiziqtirgan natijalari to'g'risidagi xulosalari mos kelmaydi)
C	Kuchsiz tavsiyalar (adekvat sifatli dalillarning yo'qligi (ko'rib chiqilgan barcha samaradorlik choralari (natijalari) muhim emas, barcha tadqiqotlar past uslubiy sifatga ega va ularning qiziqtirgan natijalari bo'yicha xulosalari mos kelmaydi)

## 2. ASOSIY QISM

### 2.1. Kirish

Diabetik nefropatiya (DN) yoki diabetik buyrak kasalligi metabolik va gemodinamik omillarning buyrak mikrosirkulyasiyasiga ta'siri natijasida rivojlanadi. Giperglikemiya DN shakllanishining asosiy sababidir. Ayni paytda, giperlipidemiya, arterial gipertenziya (AG), renin-angiotenzin tizimi (RAAT), chekish va anemiya uning rivojlanish omillari hisoblanadi. Qandli diabetda buyrak patologiyasining turli xil variantlari (diabetik glomeruloskleroz, peshob yo'llari infeksiyasi, surunkali glomerulonefrit, dorilardan rivojlanuvchi nefrit, buyrak arteriyalarining aterosklerotik stenoz, tubulointerstisial fibroz va boshqalar) turli rivojlanish mexanizmlariga, o'sib borish dinamikasiga, davolash usullariga ega bo'lib, qandli diabet bilan og'riqan bemorlar uchun muammo, chunki ularning tez-tez o'zaro birgalikda uchrashi kasallikni og'irlashtiradi.

### 2.2. Ta'rif.

Diabetik nefropatiya (DN) yoki diabetik buyrak kasalligi metabolik va gemodinamik omillarning buyrak mikrosirkulyasiyasiga ta'siri natijasida rivojlanadi. Giperglikemiya, giperlipidemiya, arterial gipertenziya (AG), renin-angiotenzin tizimi (RAAT), chekish va anemiya uning rivojlanish uchun xavf omillari hisoblanadi.

<https://kdigo.org/wp-content/uploads/2022/10/KDIGO-2022-Clinical-Practice-Guideline-for-Diabetes-Management-in-CKD.pdf>

Diabeticheskaya nefropatiya (DN) yoki diabetik buyrak kasalligi qandli diabet 2-turi bilan og'riqan bemorlarning 20-40 % da rivojlanadi va kasallik bilan bir vaqtda asoratni aniqlash mumkin. DN rivojlanishi yurak-qon tomir patologiyasi xavfini va davolanish narxini sezilarli darajada oshiradi. SBK konsepsiyasiga ko'ra, buyrak patologiyasi bosqichi KFT, nefronlarning soni va umumiy ish hajmini, shu jumladan, noekskretor funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lganlarni eng to'liq aks ettiruvchi deb tan olingan KFT qiymati bilan baholanadi (1-jadvalga qarang). Bundan tashqari, albuminuriyaning uchta toifasi mavjud (2-jadvalga qarang).

1-Jadval.

Surunkali buyrak kasalligining glomerulyar filtrasiya tezligiga ko'ra bosqichlari

Bosqich	KFT (ml/min/1,73 m)	Ifodalash
C1	>90	Yuqori va jadal
C2	60-89	Biroz pasaygan
C3a	45-59	O'rtacha darajada pasaygan
C3b	30-44	Sezilarli darajada pasaygan
C4	15-29	Juda ham pasaygan
C5	<15 yoki dializ	Terminal buyrak etishmovchiligi

1 va 2 bosqichlarni tashxislash uchun buyrak shikastlanishining markerlarini o'rganish lozim.

2-Jadval

Albuminuriya darajasiga ko'ra, SBK tasnifi

Toifa	A/peshobdagi kreatinin		AET (mg/24 soatiga)	Ifodalash
	mg/mmol	mg/g		
A1	<3	<30	<30	Me'yorida yoki biroz oshgan
A2	3-30	30-300	30-300	Nisbatan oshgan
A3	>30	>300	>300	Sezilarli darajada oshgan*

Eslatma: A/Kr – peshobda albumin/kreatinin nisbati; AET – albuminning sutkalik ekskresiyasi; shu jumladan, nefrotik sindrom (AET>2200 mg/24 soatiga [A/Kr>2200 mg/g; >220 mg/mmol]); \* - shu jumladan, nefrotik sindrom

**SBK tasnifiga muvofiq DN tashxisini shakllantirish:**

DN, SBK S1-S2, A2;

DN, SBK S1-S2, A3;

DN, SBK S3-S5, A1-A3 (albuminuriya darajasidan qat'iy nazar);

DN, SBK S5 (o'rinbosar buyrak terapiyasi);

60 ml/min/1,73 m dan ortiq KFT saqlanib qolgan bemorlarda nefroprotektiv terapiya fonida albuminuriya ko'rsatkichlari me'yoriga kelganda - DN, SBK tashxislash quyidagicha: DN, SBK C1-2, A1 (nefroprotektiv terapiya fonida albuminuriya regressi).

3-Jadval

**DN rivojlanishida xavf guruhlari  
(MAU va KFTning yillik monitoringi)**

<b>Bemorlar guruhi</b>	<b>Skrining boshlanish vaqti</b>
QD 1-turida, erta bolalik davrida, balog'at yoshidan keyin o'zini namoyon qilganda.	Qandli diabet boshlanganidan 5 yil o'tgach
QD 1-turining balog'at yoshida boshlanishi	Tashxislash vaqtida, so'ng har yili
QD 2-turi	Tashxislash vaqtida, so'ng har yili
Homiladorlik davrida diabetning namoyon bo'lishi (homiladorlik diabeti)	Har 3 oyda

**3. TASHXISLASH USULLARI**

<https://kdigo.org/wp-content/uploads/2022/10/KDIGO-2022-Clinical-Practice-Guideline-for-Diabetes-Management-in-CKD.pdf>

**3.1. Tashxislash.**

SBK C1-3a A1-2 bosqichida DN ning o'ziga xos belgilari QD 2-turi bilan og'rikan bemorlarda va QD 1-turi bilan og'rikan bemorlarning aksariyatida mavjud emas (qon bosimining ko'tarilish holatlari kamdan-kam hollarda qayd etiladi). SBK C4-5 bosqichida zaiflik, uyquchanlik, tez charchash, kuchli doimiy shishish, doimiy ravishda ko'tarilgan qon bosimi, ko'ngil aynishi va ba'zida engilliksiz qayt qilish qayd etiladi.

**Diabetik nefropatiya bilan og'rikan bemorlarga xos bo'lgan shikoyatlar:**

AB ortishi, ishtahaning pasayishi, ko'ngil aynishi, peshobning kamayishi, terining qichishishi, umumiy holsizlik, yurak qon-tomir yoki mavjud kasalliklarning jadal rivojlanib borishi, shishlarning paydo bo'lishi.

DN tashxisi qonda albumin, peshobda kreatinin darajasini va KFT aniqlashga asoslangan. (C-sinfi, dalillar darajasi - 5)

- Peshobning bir qismidagi albumin/kreatinin nisbati yoki albuminni aniqlash va yiliga kamida bir marta QD 2-turida KFTni hisoblash tavsiya etiladi.
- KFT <60 ml/min/1,73 m<sup>2</sup>, qo'shimcha AG, elektrolitlar buzilishi, metabolik asidoz, anemiya, minerallar va suyaklarning buzilishi - boshlang'ich terapiya.
- DN zo'rayib borganda nefrolog maslahati lozim

Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarda SBK C1-3a A1-2 bosqichida DNning o'ziga xos belgilari yo'q. SBK C4-5 bosqichida holsizlik, uyquchanlik, tez charchash, kuchli ifodalangan doimiy shish, yuqori turg'un qon bosimi, ko'ngil aynishi va ba'zida engilliksiz qayt qilish qayd etiladi. SBK C3-5 A3 bosqichida oyoq to'pig'ida, boldirda, ba'zan sonlarda, yuzda shish kuzatilishi, ishtahaning pasayishi, qon bosimining oshishi va doimiy ravishda ko'tarilishi qayd etiladi.

4-Jadval

**Laborator va instrumental tekshiruv usullari**

Zaruriy tekshiruv usullari	Qo'shimcha tekshiruv usullari
<ul style="list-style-type: none"> <li>Ertalabki peshobning bir qismida mikroalbuminuriya (MAU)</li> <li>Proteinuriya (umumiy va sutkalik peshobda)</li> <li>Peshobdagi cho'kmani tekshirish (eritrositlar, leykositlar)</li> <li>Qonda kreatinin, mochevina va kaliy darajasini aniqlash</li> <li>Glomerulyar filtrasiya tezligini aniqlash (KFT)</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Buyrak va buyrak tomirlarini dupleks dopplerografik tekshiruvi</li> <li>Stenozni istisno qilish uchun buyrak tomirlarining angiografiyasi</li> </ul>

### 3.2. Koptokchalar filtrasiya tezligini hisoblash usullari

hKFT zardobdagi kreatinin darajasini hisobga olgan holda tasdiqlangan formuladan foydalanib hisoblanadi (aniqlashning mos yozuvlar (klirens) usullari bilan eng yaxshi bog'langan CKD-EPI formulasi afzalroq).

Hozirgi vaqtda kreatinin darajasiga qarab bolalarda hKFTni baholash uchun tavsiya etilgan formula Bedsayd tomonidan modifikasiyalantirilgan Shvars formulasidir. Qon zardobidagi kreatinin darajasini aniqlash uchun izotop suyultiruvchi massa spektrometriyasi bilan kalibrlangan usullardan foydalanish kerak.

Qo'shimcha ravishda zardobda sistatin Cni o'z ichiga olgan CKD-EPI tenglamasi, ayniqsa past hKFT holatida skriningni aniqligini oshiradi.

5-Jadval

#### Koptokchalar filtrasiya tezligini hisoblash usullari

<ul style="list-style-type: none"> <li><b>SKD-EPI formulasi bo'yicha**:</b>  <math display="block">KFT (ml/min/1,73 m^2) = 141 \times [plazmadagi \text{ min kreatinin (mg/dl)/k yoki } 1]^{\alpha} \times plazmadagi [max \text{ kreatinin (mg/dl)/k yoki } 1]^{-1,209} \times 0,993^{yoshi} \times 1,018 \text{ (ayollar uchun)} \times 1,159 \text{ (nigroid irqiga mansublar uchun)}</math>           k- 0,7 ayollar uchun va 0,9 erkaklar uchun, <math>\alpha</math> – (- 0,329) ayollar uchun va (-0,411) erkaklar uchun            kreatinin (mkmol/l) = kreatinin (mg/dl) x 88,4</li> <li><b>Shvarts formulasi (bolalar uchun)*:</b>  <math display="block">KFT (ml/min) = 4,3 \times bo'y (m) / qondagi \text{ kreatinin}</math></li> <li><b>Kounaxan formulasi (bolalar uchun):</b>  <math display="block">KFT (ml/min/1,73 m^2) = 3,8 \times bo'y (m) / qondagi \text{ kreatinin (mkmol/l)}</math></li> </ul>
--

- Kattalarda KFTni hisoblash kalkulyatori saytda joylashtirilgan: [www.nkdep.nih.gov](http://www.nkdep.nih.gov)

- Bolalarda KFTni hisoblash kalkulyatori saytda joylashtirilgan:

[www.kidney.org/professionals/kdoqi/gfr\\_calculatorped](http://www.kidney.org/professionals/kdoqi/gfr_calculatorped)

6-Jadval

#### KFTni klirens usulida aniqlash

1.	Homiladorlik
2.	Morbid semizlik ( $TVI \geq 40 \text{ kg/m}^2$ ), tana vazni defisiti ( $TVI \leq 15 \text{ kg/m}^2$ )
3.	Vegetarianlik
4.	Miodistrofiya, paraplegiya, kvadriplegiya
5.	Nostandart tana o'lchamlari (oyoq-qo'l amputasiyasi)
6.	Buyraklar o'tkir zararlanishi
7.	Buyrak transplantasiyasi
8.	Nefrotoksik preparatlar buyurilganda


KFT darajasini hisoblash keyingi taktikani tanlash uchun muhimdir.

- SBK C4 va C5da dorilarning dozasini sozlash kerak
- SBK C5 da insulinni qo'llashga qarshi ko'rsatmalar mavjud emas.
- 1-2 dan 3-5 gacha bo'lgan SBK uchun, gipoglikemiyaga moyil bo'lgan holda, insulin dozasini kamaytirish kerak.

### TASHXISLASH

- Albuminuriyaning ko'payishi va/yoki birlamchi buyrak patologiyasi belgilari va simptomlari bo'lmaganda hKFTni pasayishiga asoslanadi.
- Odatda quyidagilar kiradi: diabetning katta staji, diabetik retinopatiyaning mavjudligi, gematuriyasiz albuminuriya va hKFTning tez pasayishi
- 2-toifa diabet bilan og'rikan bemorda SBK diabet bilan og'irlashgan yoki diabet bilan bog'liq bo'lmagan diabetning bevosita natijasi bo'lishi mumkin. 2-toifa diabet bilan og'rikan bemorlarda DN ni diabetik retinopatiya bo'lmasa ham (o'rtacha sezgir va o'ziga xos marker), shuningdek, normoalbuminuriya fonida hKFT pasayishi bilan tashxislash mumkin.
- Tez o'sib borayotgan albuminuriya, nefrotik sindromning keskin rivojlanishi, hKFTning tez pasayishi, diabetik retinopatiyaning yo'qligi (1 tur diabetda), siydik cho'kmasining o'zgarishi (gematuriya, leykosituriya, silindruriya), muqobil yoki qo'shimcha sabab bo'lsa. buyrak patologiyasini tahmin qilish mumkin
- hKFT  $<60$  ml/min/1,73 m<sup>2</sup> bo'lganda SBK asoratlarini baholash

### 3.3. SBK tashxislash algoritmi



1-rasm. SBK tashxislash sxemasi

### 3.4. QIYOSIY TASHXISLASH.

Buyrak patologiyasini va/yoki uning jadal rivojlanishini aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga kelsa, nefrologga murojaat qilish zarur (1-sinf).

### Tashxisni qiyinlashtiruvchi omillar:

Buyrak, peshob yo'llarining yo'ldosh yallig'lanish kasalliklari, stenoz, buyrak tomirlarining fibrozi, yurak-

qon tomir kasalliklari, yurak etishmovchiligi, jigar kasalliklari va boshqalar.

- Diabetik glomerulosklerozdagi klassik gistologik o'zgarishlar ko'pincha DN bilan QD 1-turi mavjud bemorlarda aniqlanadi, buyrak funksiyasi buzilgan QD 2-turi mavjud bemorlarda morfologik o'zgarishlar ko'proq heterogendir. Adabiyotlar ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, QD 2-turi bilan og'riq bemorlarda buyrak biopsiyasi 30% hollarda atipik strukturaviy o'zgarishlarni aniqlaydi, bu esa buyrak arteriyasining aterosklerotik stenoz, tubulointerstisial fibroz, peshob yo'llari infeksiyasi, interstisial nefrit, dorilardan rivojlanuvchi nefrit kabi turli kasalliklarni tashxislashda noaniqlikka olib keladi. Bunday hollarda tashxisni aniqlashtirish uchun nefrolog bilan maslahatlashish zarur.
- Lozim bo'lgan hollarda, qandli diabetda buyrak patologiyasini tashxislash uchun zaruriy tekshiruv usullari (albuminuriya, peshob cho'kmasi, kreatinin, qon zardobidagi kaliy, KFT hisoblash) bilan bir qatorda, qo'shimcha usullar (buyrak va buyrak tomirlarining dupleks ultratovush tekshiruvi; stenozlanish jarayonini, tomirlar emboliyasini tashxislash uchun buyrak tomirlari angiografiyasi) [1] (B-sinfi, 2).
- KFT va albuminuriya toifalari QD va SBK bilan og'riq bemorlarni yurak-qon tomir kasalliklari va terminal bosqichdagi buyrak kasalligi xavfi bo'yicha tabaqalash imkonini beradi (7-jadval). Zaruriy tekshirish usullari sifatida biz EKG, ExoKG; qo'shimcha tekshiruv usuli sifatida: jismoniy yuklamalar bilan sinamalar: tredmil sinamasi, veloergometriya, miokardning yuklamali bir fotonli emission kompyuter tomografiyasi (ssintigrafiya), stress-exokardiografiyasi (yuklama bilan, dobutamin bilan), MSKT, Koronarografiya.

7-jadval

**SBK mavjud bemorlarda KFT va albuminuriya asosida yurak-qon tomir kasalliklari va terminal bosqichdagi SBKning birgalikdagi xavfini baholash uchun shkala.**

				Albuminuriya**		
				A 1	A 2	A 3
				Me'yorida yoki biroz oshgan	Nisbatan oshgan	Sezilarli oshgan
				<30mg/g <3mg/mmol	30-300mg/g 3-30mg/mmol	>300mg/g >30mg/mmol
KFT (ml/ min/ 1,73m <sup>2</sup> )	C1	Yuqori yoki jadallashgan	≥90	Past*	O'rtacha	Yuqori
	C2	Nisbatan pasaygan	89-60	Past *	O'rtacha	Yuqori
	C3a	Pasaygan	45-59	O'rtacha	Yuqori	Juda yuqori
	C3b	Sezilarli pasaygan	44-30	Yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori
	C4	Keskin pasaygan	29-15	Juda yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori
	C5	Terminal bosqich	<15	Juda yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori

Eslatma: \* xavf past – umumiy populyasiyada, buyrak shikastlanishi belgilari bo'lmasa, KFT toifalari C1 yoki C2 SBK mezonlariga javob bermaydi. \*\* Albuminuriya –bitta (ertalabki peshob afzalroq) peshob namunasida albumin / kreatinin nisbati aniqlanadi, KFT CKD-EPI formulasi yordamida hisoblanadi.

**4. DIABET NEFROPATIYASINI DAVOLASH**

*[Effect of intensive therapy on the development and progression of diabetic nephropathy in the Diabetes Control and Complications Trial. The Diabetes Control and Complications \(DCCT\) Research Group - PubMed \(nih.gov\)](#)*  
*[Retinopathy and nephropathy in patients with type 1 diabetes four years after a trial of intensive therapy - PubMed \(nih.gov\)](#)*  
*[The Diabetes Control and Complications Trial/Epidemiology of Diabetes Interventions and Complications Study at 30 Years: Overview | Diabetes Care | American Diabetes Association \(diabetesjournals.org\)](#)*

#### **4.1. Ambulator davolash taktikasi:**

**Shikoyatlar:** peshob chiqishining kamayishi, ishtahaning pasayishi, terining qichishi, holsizlik, charchash, bosh og‘rishi, qon bosimining ortishi.

**Anamnez:** ko‘p yillar davomida QD 1 yoki QD 2 turining mavjudligi, tana vaznining o‘zgarishi, yurak qon-tomir kasalliklari.

#### **Klinik tekshiruvlar:**

Ob'ektiv ko‘ruv:

- Bo‘y, vazn, bel aylanasi, son aylanasi, TVI.
- Yurak, o‘pkalar, qorin bo‘shlig‘ini auskultasiya qilish va paypaslash.
- Qon bosimini, YuQCh, nafas chastotasini o‘lchash.
- Oyoq barmoqlarini ko‘ruvi.
- Oyoq panjasi sezgirligini aniqlash.
- Oyoq panjasida pulsasiyani aniqlash.
- Ko‘ruv o‘tkirligini aniqlash.
- Ko‘z tubini tekshirish.

#### **Davolash maqsadi:**

Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda SBK rivojlanishining oldini olish va jadallashib borishini sekinlashtirish uchun QD mavjud bemorlarda uglevod almashinuvining kompensasiyasiga erishish tavsiya etiladi (A-sinfi).

DN rivojlanishi va jadallashib borishini oldini olish uchun uglevod almashinuvining kompensasiyasiga erishishning roli asosiy tadqiqotlarda ishonchli tarzda ko‘rsatilgan: DCCT (Diabetes Control and Complications Trial), UKPDS (UK Prospective Diabetes Study), KR89 15 ADVANCE (Action in Diabetes and Vascular Disease: Preterax and Diamicron Modified Release Controlled Evaluation).

KDIGO ning so‘nggi tavsiyalari glikemik nazoratni qon bosimi va yurak-qon tomir xavfini nazorat qilishning asosiy omili sifatida ko‘rib chiqqan. AQSh Milliy Buyrak Jamg‘armasi (NKF KDOQI) tavsiyalari mavjud xavflarni hisobga olgan holda QD va SBK bilan kasallangan bemorlarda me‘yoriy HbA1c darajasini belgilaydi:

- HbA1c <7,0% (53 mmol/mol) mikroangiopatiyalarning rivojlanishi va jadallashib borishini oldini olish uchun, shu jumladan DN (Sinf- I A)
- HbA1c <7,0% (53 mmol/mol) darajasi gipoglikemiya xavfi bo‘lgan bemorlar uchun tavsiya etilmaydi (Sinf- I B)
- Ixtisoslashgan tibbiy yordam algoritmlariga ko‘ra, qandli diabet bilan og‘rigan bemorlar, og‘ir asoratlari, yo‘ldosh kasalliklari, qisqa umr ko‘rish va gipoglikemiya xavfi bo‘lgan bemorlar uchun HbA1c qiymati
- C3-5 SBK uchun gipoglikemik dorilar/insulin dozasini to‘g‘irlash, gipoglikemiya rivojlanish xavfini hisobga olgan holda tavsiya etiladi. (Sinf-A, 1)

#### **Davolash:**

*<https://diabetesjournals.org/care/article/45/12/3075/147614/Diabetes-Management-in-Chronic-Kidney-Disease-A>*

#### **4.1.1. Nomedikamentoz davolash.**

Turmush tarzini o‘zgartirish va parhez: kuniga 3 grammdan kam osh tuzini iste‘mol qilish, kam oqsilli, hayvon

yogʻlarisiz parhez.

Parhezga rioya qilish - yogʻlarni, oddiy uglevodlarga boy ovqatlarni (yuqori glikemik indeksli) iste'mol qilishni cheklash. Kundalik rasionga oʻsimlik tolasi (klechatka, sabzavotlar, koʻkatlar, kepakli undan tayyorlangan mahsulotlar), toʻyinmagan yogʻli kislotalar (oz miqdorda oʻsimlik yogʻi, baliq) boʻlgan oziq-ovqatlarni kiritish.

- Giperkaliemiya xavfini kamaytirish uchun QD 2-turi va SBK bilan ogʻrigan bemorlarda kaliy miqdorini cheklash tavsiya etiladi (V sinfi, 3).
- Osh tuzini kuniga 3 grammgacha cheklash, qon bosimini nazorat qilish va yurak-qon tomir xavfini kamaytirish uchun QD 2-turi va SBK bilan ogʻrigan bemorlarda osh tuzini kuniga 2,3 g gacha cheklash tavsiya etiladi (A sinfi, 1).
- DN jadallashib ketmasligi uchun homilador va dializda boʻlmagan QD 2-turi hamda SBK 3-5 bosqichi mavjud bemorlarda kuniga 0,8 g/kg ideal tana vazniga oqsil iste'mol qilish tavsiya etiladi (B sinf-2). Kuniga 1,3 g / kg dan ortiq boʻlgan parhez albuminuriyaning kuchayishi, buyrak funksiyasining tez pasayishi va kardiovaskulyar oʻlim bilan bogʻliq. Oqsilni kuniga 0,8 g / kg dan kam iste'mol qilish glikemik nazoratga, yurak-qon tomir xavfiga yoki KFTning pasayishiga ta'sir qilmaydi.
- Kaloriyasiz qand oʻrmini bosuvchi moddalarni iste'mol qilish.
- Ochlik qat'iyani tavsiya etilmaydi

Jismoniy faollik:

- Har kuni 30 minut piyoda yurish;
- qon bosimi va yurak urish tezligini nazorat qilish ostida uzoq muddatli jismoniy faollik;

Yomon odatlardan voz kechish: spirtli ichimliklarni nazoratsiz iste'mol qilish, chekish qat'iyani man etiladi.

DN mavjud bemorlarni oʻqitish:

Diabetik nefropatiyada DN bilan ogʻrigan bemorlarni tashxis qoʻyish bilanoq oʻqitish kerak: parhezning alohida oʻrmini tushuntirish, qon bosimi, xolesterin va glikemiyaning nazorat qilish.

- Treningning asosiy maqsadi qondagi glyukoza va qon bosimining normal darajasiga erishishga yordam berishdir.
- Qandli diabetda DN uchun xavf omillarini nazorat qilish: arterial gipertenziya, giperlipidemiya, glikemiya

#### **4.1.2. Medikamento davolash:**

1. Qand miqdorini pasaytiruvchi tabletkalar:

- NGLT-2 ingibitorlari – qondagi qand darajasidan qat'iy nazar (kanagliflozin, dapagliflozin, empagliflozin afzal) SBKning rivojlanishi va yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishi xavfining pasaytirishini koʻrsatdi. Agar NGLT-2 ingibitorlarini qoʻllanilganda individual maqsadli glikemik nazoratga erishilmasa yoki preparatlarni qarshi koʻrsatma boʻlganda yoki bemor uni koʻtara olmaganida, CKD rivojlanishi va yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishi xavfini kamaytiradigan GPP-1 agonistlaridan foydalanishni oʻylab koʻring. 2 tur qandli diabet bilan ogʻrigan bemorlarga bemorning xususiyatlari va hKFT asosida individual glikemik maqsadlarga erishish uchun kerak boʻlganda qoʻshimcha diabetga qarshi vositalar qoʻshilishi mumkin.
- Biguanidlar (metformin-radix) – dozasi KFT darajasiga koʻra belgilanadi: KFT 45 ml/min dan past boʻlganda, bekor qilinadi;
- Sulfonilmochevina preparatlari (gepirid)(SBK 1-4);
- Inkretinlar (glyukagonsimon peptid 1-tip reseptorlari agonistlari (aGPP-1) SBK 1-5, dipeptidilpeptidazi–4 ingibitorlari (iDPP-4)(SBK 1-3);
- Tiozolidindionlar (SBK 1-4);
- Insulinoterapiya

2. APF ingibitorlarini buyurish – hattoki, AB me'yorida boʻlganda ham.

3. AB yuqori boʻlganda gipertenziv preparatlarni qoʻllash.

4. Nesteroid mineralokortikoid reseptorlar antagonisti - finerenon
5. Statinlar – dislipidemiya
6. Anemiyada – temir preparatlari (III) va/yoki eritropoetin
7. Lozim bo‘lganda sezgirlikni hisobga olgan holda antibiotiklar buyurish, peshob yo‘llari infeksiyalarini davolash.

### SBKni bosqichiga ko‘ra davolash

8-jadval

SBK bosqichlari	Davolash asoslari
SBK C1-3 A2	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Me'yoriy HbA1c qiymatlarga erishish</li> <li>• Angiotenzinga aylantiruvchi ferment ingibitori (AAFI) yoki angiotenzin II reseptori blokatorlari (ARB); Homiladorlikda qo‘llanilmaydi</li> <li>• AB me'yoriy qiymatga erishish uchun kombinirlangan antigipertenziv terapiya</li> <li>• Dislipidemiya koreksiyalash</li> <li>• Anemiyani koreksiyalash</li> <li>• nefrotoksik moddalarni qo‘llamaslik (aminoglikozidlar, nosteroid yallig‘lanishga qarshi preparatlar)</li> <li>• Rentgenokonstrastli tekshiruvlar o‘tkazilayotganda ehtiyotkorlik bilan yondashish</li> </ul>
SBK C1-3 A3	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Me'yoriy HbA1c qiymatlarga erishish</li> <li>• Hayvon oqsilini cheklash (sutkasiga 0,8 g/kg tana vazniga) AAFI yoki ARB tanlov preparati sifatida; homiladorlikda man etiladi</li> <li>• AB me'yoriy qiymatga erishish uchun kombinirlangan antigipertenziv terapiya</li> <li>• Dislipidemiya koreksiyalash</li> <li>• Anemiyani koreksiyalash (eritropoezni stimullovchi, temir preparatlari)</li> <li>• nefrotoksik moddalarni qo‘llamaslik (aminoglikozidlar, nosteroid yallig‘lanishga qarshi preparatlar)</li> <li>• Rentgenokonstrastli tekshiruvlar o‘tkazilayotganda ehtiyotkorlik bilan yondashish</li> <li>• Ovqatlanishni nazorat etish.</li> </ul>

SBK bosqichlari	Davolash asoslari
SBK C4	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Me'yoriy HbA1c qiymatlarga erishish</li> <li>• AAFI yoki ARB tanlov preparati sifatida; KFT &lt;30 ml/min/1,73m<sup>2</sup>bo'lganda, dozani kamaytirish</li> <li>• AB me'yoriy qiymatga erishish uchun kombinirlangan antigipertenziv terapiya</li> <li>• Giperkaliemiyaning koreksiyalash</li> <li>• Dislipidemiyaning koreksiyalash</li> <li>• Fosfor-kalsiy almashinuvi buzilishlarini koreksiyalash</li> <li>• Anemiyaning koreksiyalash (eritropoezni stimullovchi, temir preparatlari)</li> <li>• nefrotoksik moddalarni qo'llamaslik (aminoglikozidlar, nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar)</li> <li>• Rentgenokonstrastli tekshiruvlar o'tkazilayotganda ehtiyotkorlik bilan yondashish</li> <li>• Ovqatlanishni nazorat etish.</li> </ul>
SBK C5	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Gemodializ</li> <li>• Peritoneal dializ</li> <li>• Buyrak transplantasiyasi</li> </ul>

Nosteroid mineralokortikoid reseptorlari antagonisti Finerenon SBK rivojlanishi va yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi, QD2tur , hKFT  $\geq 25$  ml/min/1,73 m<sup>2</sup>, qon zardobida kaliy konsentratsiyasi va albuminuriya (A/) bo'lgan bemorlarga tavsiya etiladi. Cr  $\geq 30$  mg/g) APF ingibitorlari maksimal ruhsat etilgan dozasi qaramay.

*NB!* DNni davolash DN rivojlanishining asosiy xavf omillarini - giperglikemiya va arterial gipertenziyani o'z vaqtida baholash va tuzatishga asoslangan bo'lishi kerak.

*NB!* SBK bilan og'riqan bemorlarda HbA1s ning 6,5-7,0% bo'lgan me'yoriy darajasini hisobga olish kerak, bemorning individual xususiyatlariga moslashtirish lozim.

*NB!* Rivojlangan DN uchun davolashning asosiy maqsadi terminal buyrak etishmovchiligi rivojlanishining oldini olish va yurak-qon tomir xavfini kamaytirishdir.

*NB!* Davolash chora-tadbirlari DN rivojlanishi va jadallashib borishiga ta'sir qiluvchi asosiy patogenetik mexanizmlar va xavf omillariga ta'sir qilishi kerak; DN rivojlanishini sekinlashtirishda eng katta samaraga multifaktorial yondashuv bilan erishish mumkin.

#### **Glikemiyaning nazorat qilish.**

- SBKning har qanday bosqichida glikirlangan gemoglobinni individual me'yoriy darajaga erishishga harakat qilish kerak (5.1 bo'limga qarang).
- Metabolik nazoratni rejalashtirishda KFT darajasini hisobga olish kerak. QD 2-turi bilan og'riqan bemorlarda:
- agar KFT <60 ml/min/1,73 m<sup>2</sup> bo'lsa, glibenklamid ishlatilmasligi kerak;
- agar KFT <45 ml/min/1,73 m<sup>2</sup> bo'lsa, metformin ishlatilmasligi kerak;
- KFT <30 ml/min/1,73 m<sup>2</sup> bo'lganida, ko'pgina dorilarning, shu jumladan insulinning dozasi koreksiyalash talab etiladi.

**QD mavjud bemorlarda DN-ning turli bosqichlarida qo‘llash mumkin bo‘lgan qand tushiruvchi dori vositalari**

<b>Preparatlar</b>	<b>SBK bosqichi</b>
Metformin	C 1 – 3*
Glibenklamid	C 1 – 2
Gliklazid i gliklazid MV	C 1 – 4*
Glimepirid	C 1 – 4*
Glikvidon	C 1 – 5
Glipizid i glipizid retard	C 1 – 4*
Repaglinid	C 1 – 5
Nateglinid	C 1 – 3*
Pioglitazon	C 1 – 4
Rosiglitazon	C 1 – 4
Sitagliptin	C 1 – 5*
Vildagliptin	C 1 – 5*
Saksagliptin	C 1 – 5*
Linagliptin	C 1 – 5
Alogliptin	C 1 – 5*
Gozogliptin	C 1 – 3a
Gemigliptin	C 1 – 5
Evogliptin	C 1 – 4
Eksenatid	C 1 – 3
Liraglutid	C 1 – 4
Liksisenatid	C 1 – 3
Dulaglutid	C 1 – 4
Semaglutid	C 1 – 4
Dapagliflozin	C 1 – 4**
Empagliflozin	C 1 – 3***
Kanagliflozin	C 1 – 4****
Ipragliflozin	C 1 – 3
Ertugliflozin	C 1 – 3a
Insulini, analogi	C 1 – 5*

SBK C4 va C5 bosqichida preparat dozasini koreksiyalash lozim.

KFT 45 ml/min/1,73 m<sup>2</sup> (SBK C3b) dan kam bo‘lsa, metforminni\* to‘xtatish tavsiya etiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, metformin bilan davolashni SBKning 3v bosqichida tayinlash tavsiya etilmaydi (Sinf V, 1).

Buyrak kasalligi SBK C1-2 dan C3-5 gacha o‘shishi bilan Bemorlarda gipoglikemiya rivojlanish xavfini esga olish kerak insulin terapiyasi, Bu insulin dozasini kamaytirishni talab qiladi.

\*\* Agar hKFT < 25 ml/min/1,73 m<sup>2</sup> bo‘lsa boshlamang (avval qabul qiluvchilarda davom etish mumkin), dializda qarshi ko‘rsatma

\*\*\* SBK mavjud bemorlarda hKFT < 20 ml/min/1,73 m<sup>2</sup> gacha ishlatish mumkin.

\*\*\*\*Agar hKFT < 30 ml/min/1,73 m<sup>2</sup> bo‘lsa, boshlamang (albuminuriya > 300 mg/kun bo‘lgan ilgari davolangan bemorlarda davom etishi mumkin). dializda qarshi ko‘rsatma


DNda arterial gipertenziyani davolash xususiyatlari

DN uchun maqsadli qon bosimi darajasi <130/80 mm.smb.ust; (B sinf, 1)

· birinchi darajali dorilar APF ingibitorlari va ARAlar, keyin diuretiklar, beta blokatorlar va kalsiy kanal blokatorlari;

· APF ingibitorlari QD1 turda, ARA esa QD2da samaraliroq (proteinuriyani kamaytiradi); Siydikdagi albumin/kreatinin nisbati 500-1000 mg/g dan ortiq bo‘lsa, APF ingibitorlari va ARAlarning maksimal dozalarini qo‘llash mumkin.

· APF ingibitorlari va ARAlarni boshqa dorilar bilan bekor qilish/almashtirish: 4 hafta ichida KFT darajasi boshlang‘ich darajadan >30% ga kamayganda va/yoki giperglikemiya >5,5 mmol/l ortganda.



2-rasm. KDda AGni medikamentoz davolash algoritmi

10-jadval

**Qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda gipertenziya terapiyasi vaqtida qon bosimining me‘yoriy qiymatlari (ijobiy o‘tkazilgan holatlarda)**

Yoshi	SAB, mm.sim.ust.	DAB, mm.sim.ust.
18-65 yosh	> 120 va < 130	> 70 va < 80
>65 yosh	> 130 va < 140	

11-jadval

**Asosiy gipotenziv dori vositalar**

Guruh nomi	Guruh nomi
Angiotenzin-ferment ingibitori aylantiruvchi	Perindopril 5 mg, 10 mg, Lizinopril 10 mg, 20 mg Ramipril 2,5 mg, 5 mg 10 mg, Fozinopril 10 mg, 20 mg,
Angiotenzin-II reseptorlari blokatorlari	Lozartan 50 mg, 100 mg, Valsartan 80 mg, 160 mg, Kandesartan 8 mg, 16 mg
Diuretiklar: • Tiazidsimon • Genli halqasi diuretiklari • Kaliysaqlovchi (aldosteron antagonisti)	Indapamid 2,5 mg, 5 mg, Furosemid 40 mg, Torasemid 5 mg, 10 mg Spironolakton 25 mg, 50 mg
Kalsiy kanali blokatorlari: • Digidropiridin; Nodigidropiridin;	Nifedipin 10 mg, 20 mg, 40 mg Amlodipin 2,5 mg, 5 mg, 10 mg Verapamil, Verapamil SR, Diltiazem
Beta-blokatorlar: • Nosektiv ( $\beta_1$ , $\beta_2$ ); • Kardiosektiv ( $\beta_1$ ) Birgalikdagi ( $\beta_1$ , $\beta_2$ i $\alpha_1$ )	Propranolol, nadolol, pindolol, timolol, sotalol metoprololatartrat 50 mg, 100 mg; bisoprolol 2,5 mg, 5 mg, 10 mg; nebivolol 5 mg; esmolol, talinolol, karvedilol

Guruh	Preparatlar
Alfa-blokatorlar	Doksazozin, prazosin
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Markaziy ta'sir etuvchi preparatlar</li> <li>• <math>\alpha_2</math>-reseptorlar agonistlari</li> <li>• I2- imidazolin reseptorlari agonistlari</li> </ul>	Klonidin, metildopa, moksonidin
Reninning bevosita ingibitorlari	Aliskiren
Mineralokortikoid reseptorlari antagonistlari	Finerenon

### Dislipidemiyani korreksiyalash.

- Dislipidemiya aniqlanganda statinlarni qo'llash tavsiya etiladi (V-sinfi, 1).
  - DN bilan og'riqan bemorlarda lipidlarni kamaytirishga qaratilgan davolashni maqsadi - yurak-qon tomir patologiyasi yoki SBK S3a yoki undan ko'p bo'lgan bemorlarda ZPLP darajasini  $<2,5$  mmol/l va  $<1,8$  mmol/l ga erishishdir;
  - QD 2-turida dislipidemiya korreksiyalash uglevod almashinuvining kompensasiyasiga erishishdan qat'iy nazar boshlanishi lozim
  - Statinlar - ZPLP darajasini pasaytiradigan birinchi darajali preparatlardir (doimo turmush tarzini o'zgartirishga qo'shimcha ravishda):
  - ZPLP xolesterin darajasi me'yoriy qiymatlardan oshib ketganda; YuIK kasalligi tashxisi qo'yilgan diabet bilan og'riqan bemorlarda ZPLP ning boshlang'ich darajasidan qat'iy nazar;
  - agar statinlarning maksimal ruxsat etilgan dozalarini qo'llashga qaramay, maqsadlarga erishilmasa, ZPLP qiymatini boshlang'ich ko'rsatkichidan 30-40% pasayishi terapiyaning qoniqarli natijasi deb topiladi.
- Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarda statin terapiyasini boshlash tavsiya etilmaydi, agar ulardan foydalanish uchun o'ziga xos yurak-qon tomir ko'rsatkichlari bo'lmasa, bu juda kam uchraydigan klinik holat. (B-sinfi, 1).
- Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarda ZPLP ning me'yoriy darajasiga SBK ning ilg'or bosqichida erishish tavsiya etiladi - 70 mg/dL (1,8 mmol/l). (A sinf, 1). •
- Qo'llashga qarshi holatlar bo'lmaganda antiagregant vositalarni buyurish tavsiya etiladi. (B sinf, 2).

### Surunkali buyrak kasalligida kamqonlikni davolash.

- SBK C3-5 mavjud qandli diabet bilan og'riqan bemorlarda buyrak kamqonligi paydo bo'lganda temir va eritropoetin buyurish tavsiya etiladi (S-sinfi, 2).

Anemiyaning og'irligi gematokrit emas, balki gemoglobin bilan baholanadi, chunki ikkinchisi nisbatan beqaror, uning o'lchovlari standartlashtirilmagan va jihozlarga bog'liq. Eritropoetin darajasi ko'p klinik holatlarda SBK bilan og'riqan bemorlarda anemiya sababi sifatida eritropoetin etishmovchiligini aniqlash uchun muntazam foydalanilmaydi. Eritropoetik faollikni mutlaq retikulositlar soni bilan baholash mumkin.

Temir tanqisligini og'iz orqali yoki tomir ichiga yuborish bilan to'g'rilash SBK bilan og'riqan bemorlarda anemiyaning og'irligini kamaytirishi mumkin. Tuzatilmagan temir tanqisligi ESS terapiyasiga javobning pasayishining muhim sababidir. Temir tanqisligini aniqlash juda muhim, chunki uni tuzatish bilan bog'liq anemiya tezda qoplash mumkin va uni aniqlashdan keyin temir tanqisligi sabablarini tekshirish tashxisga olib kelishi mumkin.

- Dializsiz va gemoglobin konsentrasiyasi  $<100$  g/L bo'lmagan SBK bo'lgan katta yoshli bemorlarda ESS terapiyasini boshlash to'g'risidagi qaror gemoglobinning pasayish tezligi, temir terapiyasiga oldingi javob, qon quyish xavfi, xavflar asosida individual ravishda tanlanishi tavsiya etiladi. ESS terapiyasi bilan bog'liq va anemiya bilan bog'liq simptomlarning mavjudligi (C sinfi, 2). •

- Dializda bo'lgan SBK 5 bilan og'riqan bemorlarda 90 va 100 g / l gemoglobin konsentrasiyalarida gemoglobinning 90 g / L dan pastga tushishining oldini olish uchun ESS terapiyasi tavsiya etiladi. (B sinf, 2). Ba'zi bemorlarda 100 g / L dan yuqori gemoglobinda ESS terapiyasini boshlash hayot sifatini yaxshilash uchun

ifodalanadi.

Rekombinant inson eritropoetini (EPO) buyrak anemiyasini davolashning asosiy usuli hisoblanadi. Preparatni t/o yoki tomir ichiga 20-100 ME/kg yoki tomir ichiga 50-200 ME/kg haftasiga 2-3 marta yuborish kerak. EPO miqdorini tanlash jarayonida qondagi AQB (har kuni) nazorat qilinadi, Hb, Hct va qondagi trombositlar sonini (har 1 haftada bir marta) kuzatib borish kerak. Gemoglobinning o'sish tezligi oyiga 5-10 g/l dan oshmasligi kerak. Hct ning o'sishi haftada 0,5 - 1% tashkil etishi lozim.

### **Eritropoetinni titrlash algoritmi**

Agar EPO Nb bilan 4 haftalik davolanishdan keyin 5 g/l dan kam bo'lsa, EPO miqdorini 25-50% ga oshirish kerak.

- Agar Nb 5-10 g/l gacha ohsa, EPO miqdori o'zgarmaydi.
- Nb 10 g/l dan oshganda, EPO miqdori 25% ga kamayadi.
- Nb 20 g/l dan oshganda, EPO miqdori 50% ga kamayadi.

Ht me'yoriy qiymatlariga (33-36%) erishilganda yoki Nb > 10 g/l bo'lsa, preparatning dozasi 2 baravar kamaytirish kerak. Agar Nb 130 g/l dan ohsa Nb, darajasi 110 g/l gacha kamayguncha davolashni to'xtatib turish kerak, keyin davolashni avvalgi dozadan 50% kamroq dozada davom ettirish kerak.

Buyrak anemiyasi temir tanqisligidan kelib chiqqan anemiya bilan kechganda, eritropoetin temir preparatlari (Globeks, Ferro-gradumet, Ferrum-lek, Ferroleks, Tardiferon, Ginotardiferon va boshq) bilan birga buyuriladi. Temir preparatlarini parenteral yuborish (Venofer, Ferrofer, Avifer va boshq) samaraliroq. Temir tanqisligida kompensasiya qon zardobidagi temir darajasi, transferrinning to'yinganlik koeffitsienti va ferritin darajasining qat'iy monitoringi ostida amalga oshirilishi kerak.

Eritropoetin bilan davolashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlarni yodda tutmoq lozim:

- Qon bosimining oshishi (arterial gipertenziyaning kuchayishi);
- trombotik asoratlar rivojlanishi bilan qon ketishining kuchayishi (oqma trombozi, katta tomirlarning trombozi);
